



AKADEMIK VOKAL OVOZI VA U BILAN ISHLASH

Muallif: Umarova Zarnigor Rahmonali qizi ¹

Affilyatsiya: Xalqaro Nordik universiteti “Musiqqa ta’limi va san’at” yo’nalishi 1-kurs magistranti ¹

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14468794>

ANNOTATSIYA

Har bir insonni ovoz ohangi nafisligi hamda so’zni chiroyli talafuz etilishi inson kayfiyatiga ta’siri etadi va uni madaniy-ma’naviy tomonlarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Mazkur maqola akademik vokal ovozi va u bilan ishlash uslublariga bag’ishlangan.

Kalit so’zlar: Akademik vokal, alt, medzo, ovoz tembri, stakato, artikulyatsiya.

Opera yani akademik vokal ijrochiligi bu egallanishi bir muncha murakkab bo’lgan kattabir janr hisoblanadi. Bu janr bizga 1936 yilda Muhtor ashrafiy hamda sergey vaselenkoning Bo’ron operasi bilan kirib keldi. Avvalida opera asarlari to’liq yopiq ovozda ijro etilmadi. Chunki O’zbekistonda hali bu janrning malakali ustalari yo’q edi. O’pera asarlari akademik yoqiq ovozda kuylanadi. Keyinchalik Rossiya va Italiya davlatlarida kadrlar o’qitilib, bu soha rivojlana boshladi. Hozirga qadar bu sohaning sir asrorlari o’rganilib kelinmoqda.

Vokal ijrochigidagi ayol va erkak ovozlari o’rganib chiqamiz.

Ayol ovozlari: Alt, Medzo soprano, Soprano.

Soprano ovozi uchga bolinadi: Dramatik soprano, Lirik soprano, Lirik koloraturo soprano.

Erkak ovozlari: Bas, Bariton, Tenor.

Tenor ovozlari esa ikkiga ya’ni dramatik tenor va lirik tenorlarga bo’linadi.

Biz yuqorida akademik ovozlarni bo’linishini ko’rib chiqdik. Ijrochiga asar tanlash jarayonida biz avvalo talabaning ovozi aniq olib ovozga mos asar tanlab olishimiz zarur.

Ijro paytidagi eng asosiy qoidalar;

Diqqatni jamlash,

To’g’ri nafas olish,

Ritmni his etish,

Harflarni to’g’ri talafuz etish,

Ushbu qoidalar ijrodagi yengillikni va ohanglarni jarangdorligini taminlaydi. Saxnada turib mikrofonsiz asar kuylangan taqdirda ham sahnada o’tirgan oxirgi tomoshabingacha yetib boradi. Akademik vokal ovozi yopiq yig’ilgan jozibali ovozdir. Biz bu ovozda kuylangan asarlarni tingalaganimizda uning jozibasi insonni beixtiyor hayolot olamiga yetaklaydi. Ovozning go’zal tebranishi huddiki insonning asab

tolalarini erkab tichlantiradi, ruhiy olami tetiklanadi. Hozirda opera teatrlari avvalgidek bosh emas, odamlarning tinglash va san'atni qabul qilish madaniyati sezilarli darajada rivojlangan.

Ovozni yo'lga qo'yish ya'ni tarbiyalashda ayniqsa balog'at yoshidagi xonandalarda ehtiyotkorlik bilan professional yondoshish kerak. Bu davr o'tish davri bolib, organizmda turli o'zgarishlar payti xisoblanadi. Bu payt ovoz bilan juda ehtiyotkorona ishlash kerak. 16-22 yoshlar oralig'i va 16-24 yoshlar oralig'i bo'lishi mumkin. Insonni ovoz apparati murakkab bir musiqa asbobi desak ham bo'ladi. Tembrning nozikligi hissiyotlarga boy nafis ohangni ifodalashda boshqa musiqa asboblaridan farq qiladi. Deylik talaba 20 yoshda. Birinchi navbatta uning ovoz imkoniyatini aniqlab olamiz.

Fortepiano jo'rligida kuylashni to'g'ri qoidalarini o'rganib borish barobarida raspevka qilishni o'rganamiz; og'izni yumib jag'ni tushirgan holda, og'izni ichki holati dumaloq sharcha shaklida shu barobarida diafragma to'g'ri nafas olish kerak. Nafasni ayol xonandalar diafragma yoni qovurg'ani tagida oladilar erkak xonandalar esa qoringa nafasni oladilar. Nafas olish jarayonida juda ehtiyotkorlik bilan, ovoz chiqarmasdan 1 va 2-sekund oralilig'ida diafragma yoki qoringa tez stakatodek nafas olish eng to'g'ri usuldir. Kuylashdan oldin raspevka qilish va nafas olish mashqlari haqida bizda yetarli bilimlar shakllangan bo'lishi shart. Buni bilmagan ijrochining ovozi o'ta kuchli bo'lgan taqdirda xam u ijro jarayonida turli qiyinchiliklarga uchrashi mumkin.

Asar tanlashda ovoz imkoniyatini xisobga olgan holda yondoshamiz. Kuylash paytidagi kerakli joyda to'g'ri nafas olish juda muhim xisoblanib, ijrichining ovozi to'g'ri yo'naltiradi va bora bora ovozning yanada shakllanishiga yordam beradi. Belgilangan nuqtada to'g'ri nafas olmaslik esa yuqori pardalarda qiyinchilik tug'diradi. Har bir sohada nazariy bilimlar o'rganilishi lozim va bu jarayonda o'qituvchining ishtiroki muhim ahamiyatga ega. Nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash orqali biz ko'zlangan natijalarga erishishimiz mumkin.

Talafuz va nutqni ustida ishlab har bir harf ravon chiqishiga erishish mumkin. Artikulyatsiya bu muayan bir tovushni xosil qilishda nutq mushaklarini xarakati xisoblanadi. Artikulyatsiyaning asosiy ikkita turi mavjud bo'lib, ular legato va stakkato. Stakkatoda ovoz uzib uzib kuylanadi. Legatoda o'zaro ovozlari bir biriga bo'lanib ijro etiladi. Undan tashqari paramento hamda glissando kabi artikulyatsiya ifodalari mavjud. Kuylaganda, gapirganda, ovoz ohangining qay darajada tebranayotganligiga etiborli bo'lish aslo foydadan holi bo'lmaydi. Asar ijrosida so'z birinchi o'rndagi turadi. Har bir so'z tasir kuchiga ega. So'zni insonning ruhiy holatiga tasiri o'ta muhimdir. Hattoki so'zdagi har bir harflarning chiroyli jarangi, suhbat paytidagi ohangning ohista yoqimlilik ham suhbatning davomiyligini taminlaydi va o'zini chiroyli natijasini ko'rsatadi. So'z va ohangni bir butun deb baralla aytishni istar edim. So'zlar chiroyli bo'lib undagi ohang yoqimsiz bo'lsa bu suhbatdoshni, uni eshitib turgan barcha tinglovchilarni diqqatini o'ziga jalb eta olmaydi.

1- Og'iz yopiq bo'lgan holatda mi-re, mi-re, do, bu mashq ovozi asta qizdirib navbatdagi ovoz mashqiga tayarlab beradi; [Ushbu mashqni sibilus programmasida ishlab maqolaga ilova qildim]

2- Do, re, mi, fa, sol, fa, mi, re, do, biz bu mashq orqali kuylovchining talafuzlarini yo'lga solib boramiz.

3- A, o, o', u, shu unli harflar ishlirokida legato raspevkasi bilan ishlaymiz.

4-ya-a-a-a-a, bu stakato mashqi deb nomlanadi. Yuqoridagi mashqlarda ovoz qizib kuylashga tayyor bo'la boshlaydi.

Artikulyatsiya

Ovoz qizib olgach biz vokalizlardan foydalanamiz. boshlanishiga APT vokalizlaridan foydalansak boladi sababi APTning vokalizlari deyarli xamma

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Panjiyev Q, Salimova D. Vokal va zamonaviy musiqa. Ўқув қўлланма. Т.: 2019, 274 б.

Vokal asoslari. O'quv qo'llanma. 2008.

Picasso P. (1921). "Uch musiqachi". New York: Zamonaviy San'at Muzeyi.

Qodirov R. Musiqa pedagogikasi. Toshkent, 2014 yil

